

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил 12-сон



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z MA'NOLARI KUCHAYTIRISHNING LINGVOPRAGMATIK TALQINI

Haydarov Anvar Askarovich

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, Buxoro davlat universiteti

E-mail: haydarov1955@rambler.ru, Tel: +998930820957

Mustafoyeva Nodira Erkin qizi

Buxoro davlat universiteti 3-bosqich talabasi

E-mail: Nodira2020@rambler.ru, Tel: +998933656489

***Annotatsiya.** Zamonaviy tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida sotsio-lingvistik, kognitiv tilshunoslik, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturalogiya, lingvopoetika, fonostilistika kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi va ular jadal rivojlanmoqda. Ushbu tilshunoslikning yangi yo'nalishlarida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shular orasida kognitiv tilshunoslik alohida ahamiyat kasb etadi.*

Tilshunoslikda so'z ma'nosining kuchayishi yoki intensivligi asosan til va nutq vositalari, qisman ekstralingvistik omillar bilan izohlanmoqda. Ushbu maqolamizda so'z ma'nolari intensivligining o'rganilishi va turli til sathlarida ifodalanishining kognitiv talqini haqida fikr yuritiladi.

***Kalit so'zlar:** sotsiolingvistik, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistik, lingvokulturalogiya, lingvopoetika, fonostilistika, intensivlik, ekspressivlik, emotsionallik, baholash.*

LINGUPRAGMATIC INTERPRETATION OF WORD MEANING IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Khaydarov Anvar Askarovich

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

Associate Professor of English Linguistics, Bukhara State University

E-mail: haydarov1955@rambler.ru, Tel: +998930820957

Mustafoyeva Nodira Erkin qizi

3rd year student of Bukhara State University

E-mail: Nodira2020@rambler.ru, Tel: +998933656489

***Annotation.** In the further development of modern linguistics, new directions such as socio-linguistics, cognitive linguistics, pragmatic linguistics, linguoculturology, linguopoetics, phono stylistics have emerged and are developing rapidly. There is a lot of research being done on these new areas of linguistics. Among them, cognitive linguistics is of particular importance.*

In linguistics, the intensity or intensity of a word is explained mainly by the means of language and speech, and in part by extra linguistic factors. This article discusses the study of the intensity of word meanings and the cognitive interpretation of their expression at different language levels.

***Keywords:** sociolinguistics, cognitive linguistics, pragmalinguistics, linguoculturology, linguopoetics, phonostylistics, intensity, expressiveness, emotionality, evaluation.*



ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СЛОВА НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Хайдаров Анвар Аскарлович

Кандидат филологических наук, доцент

Доцент кафедры английского языкознания Бухарского государственного университета

E-mail: haydarov1955@rambler.ru, Тел: +998930820957

Мустафоева Нодира Эркин кызы

Студентка 3 курса Бухарского государственного университета.

E-mail: Nodira2020@rambler.ru, Tel: +998933656489

***Аннотация.** В дальнейшем развитии современной лингвистики возникли и стремительно развиваются такие новые направления, как социолингвистика, когнитивная лингвистика, прагматическая лингвистика, лингвокультурология, лингвопоэтика, фоностилистика. В этих новых областях лингвистики проводится много исследований. Среди них особое место занимает когнитивная лингвистика.*

В лингвистике интенсивность или интенсивность слова объясняется главным образом средствами языка и речи и частично экстралингвистическими факторами. В этой статье обсуждается изучение интенсивности значений слов и когнитивная интерпретация их выражения на разных языковых уровнях.

***Ключевые слова:** социолингвистика, когнитивная лингвистика, прагмалингвистика, лингвокультурология, лингвопоэтика, фоностилистика, интенсивность, выразительность, эмоциональность, оценка.*

Umumtilshunoslikda soʻz maʼnosining kuchayishi yoki intensivlik hodisasi til va nutq vositalari, qisman ekstralingvistik omillar bilan izohlanadi. Hozirgi davrda mazkur muammo qator ilmiy ishlarning obʼyekti boʻlib kelmoqda. Soʻz maʼnolari intensivligi muammosining oʻrganilishi oʻtgan XIX asrning 60-70-yillaridan yanada kuchaydi.

Bu sohada G.Xirxner, B.Charlston, S.Grinbaun, D.Bolindjer, Sh.Balli, A.B.Kunin, L.B.Varabʼyova, Z.M.Zubko, M.N.Metsler, G.A.Soy, A.Abdullayev, M.Sodiqova, O.Bozorov, G.Gʼafforova, A.Ziyoyev kabi olimlarning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir. Ular oʻz tadqiqotlarida soʻz maʼnolari intensivligi tushunchasini turli aspektda tahlil va tadqiq qilganlar.

Ingliz tili materiallarida intensivlik darajasi G.I.Bondarenko, M.I.Polʼskiy, V.A.Malʼsev, V.N.Teliya, I.V.Arnolʼd kabi yetuk olimlarning ishlarida bayon etilgan.

Intensivlik – hissiyot va emotsionallik materializatsiyasining koʻrsatilishidir.

Intensivlik orqali inson oʻz hissiyotlarini namoyon etadi. Bu yoʻlda ular verbal, nonverbal rivojlanish bosqichlarini oʻtaydi. Kategoriya atamasi tilshunoslikka Aristotel tomonidan kiritilib, ular bir nechta qismga ajratiladi: jism, sifat, son, munosabat, joy, vaqt va boshqalar. Intensivlik kategoriyasi masalalari va ularning turli usullar bilan tilda namoyon boʻlishi Sh.Balli, Sepir, Turanskiy kabi olimlarning diqqatini oʻziga jalb etgan.

N.M.Shanskiy intensivlik tushunchasini “Sanoq darajasining koʻrinishi” deb taʼriflaydi.¹⁶ A.I.Smirnitskiyning yozishicha: “Intensivlik darajasi sifatning sanoq maʼnosini anglatib, sanoq darajasining xususiy koʻrinishini bildiradi va noaniq sanoq sifatida taʼriflanadi”.¹⁷ Sharh

¹⁶ Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.:Высшая школа, 1985.-230с.

¹⁷ Смирницкий А.Н. Лексикология английского языка. – М: 1956. -310с.



Ballining fikricha “Intensivlik – bu har xil o’zgarishlar va tushunchalar bo’lib, kattalik, qiymat, kuch va boshqa tushunchalarning darajalariga borib taqaladi”.¹⁸ A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug’atida: Intensiv forma – belgining me’yoridan o’ta kuchli ekanini ifodalovchi forma” sifatida izohlangan.¹⁹

Xullas, “intensivlik” atamasini tevarak-atrofdagi predmetlar obyektiv belgisining sanoq tasnifiga xos deb o’rganish, shuningdek, real hayotdagi vazn, rang, o’lcham xarakterlarida namoyon bo’lishi mumkin.

Ekspressivlik matnida intensivlik tushunchasini ko’pchilik tadqiqotlarda (I.V.Arnold, V.N.Teliya) uchratish mumkin.

V.N.Teliyaning fikricha, “Ekspressivlik – bu hissiyotning emotsional jarayon yordamida kuchayishi ma’nosini belgilaydi.”²⁰ I.V.Arnol’dning aytishicha, “Ekspressivlik – bu matn va matn qismi xususiyati bo’lib, ma’noni kuchli intensivlik orqali namoyon qiladi.”²¹

Ekspressivlik va intensivlik xususiyatlarini “kuchaytirish” tushunchasi orqali aniqlash mumkin. Intensivlikning ekspressivlikka borib taqalishi, nutqimizdagi ekspressivlik ko’p holatlarda uning intensifikatsiyaga bog’liq bo’ladi va stilistik nuqtai nazardan o’rganilayotgan birikmalar asosiy holatlarda kuchaytirishni talab qiladi. Ushbu ikki kategoriya tilshunoslikning ichki kategoriyalari bo’lib, birgalikda ular nutqning ifodali va adabiy ko’rinishga ega bo’lishi uchun pragmatik holat yaratadi va har ikkalasi ham faqat ma’lumot berish vazifasini emas, balki ikkinchi tomondan suhbatdoshga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Ikkala kategoriyaning formal aspektlari ham bir-biriga mos keladi. Ekspressivlik va intensivlik kategoriyalarida emotsionallik va baholash ko’rsatkichlari mavjud. Intensivlik badiiy asarlar ta’sirchanligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Yozuvchilar ushbu kategoriyadan unumli foydalanib, o’z asarlarining jozibadorligi va ta’sirchanligini oshirishda foydalanadilar. Masalan: Chosser asarlarida “full” ko’pincha kuchaytiruvchi sifatida qo’llanilgan. V.Shekspir asarlarida bo’lsa “full” kamroq ishlatilgan, zamonaviy ingliz tilida esa “full” so’zi kuchaytiruvchi sifatida umuman qo’llanilmagan. XVI asrga kelib, “full” so’zining o’rniga “very” kuchaytiruvchi so’zi iste’molga kirib kelgan.

Masalan: He’s the **veriest** man.

Zamon o’zgarishi bilan kuchaytiruvchi vositalar zahirasi ko’payib yoki kamayib borganligini ko’rish mumkin. Fransuz tilidan o’zlashgan “vrai” so’zi XIII asrga kelib, sifatga aylandi va “haqiqiy”, “haqqoniy” ma’nolarini anglatdi va XIV asrga kelib bu so’zdan ingliz tilida “very-verily” ravishi paydo bo’ldi va keyinchalik –ly suffiksi yo’qoldi.

Badiiy adabiyotda birinchilardan bo’lib, “very” intensifikator sifatida XIV asrda J.Chosser o’z asarlarida qo’llay boshladi. “Emotsionallik – nutqiy hodisadir deb yozadi til tadqiqotchisi A.Ziyayev,- u borliqdagi narsa va hodisalarni ma’qullash va ma’qullamaslik shodlik, achchiqlanish kabi tuyg’ular bilan bog’liq bo’ladi. Emotsionallik doimo baholash tushunchasi qurshovida baholanadi”.²²

Emotsional so’zlar nutqda turli xil tuyg’ularni ifodalaydi hamda butun gapga emotsional bo’yoq beradi.

¹⁸ Балле Шарл. Французская стилистика. –М: 1961. –211с.

¹⁹ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug’ati. –Т: 1985. –В39.

²⁰ Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. –М: Наука.1986. –с144.

²¹ Арнолд И.В. Стилистика современного английского языка. –М: Просвещение. 1990. – С.209-211.

²² Ziyayev.A Ingliz tilida so’z ma’nolarini kuchaytirishning kognitiv talqini Farg’ona. 2011. – В.13-24.



Masalan: Mary is happy. (Emotsional, ammo intensivlik jihatdan neytral).

Mary is **extremely** happy. (Intensivlik darajasi o'ta kuchli).

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, intensivlik emotsionallikning yuqori darajasini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Intensivlik emotsionallik darajasini belgilash uchun xizmat qiladi va shu bilan birga intensivlik emotsionallikning miqdoriy o'lchovini ham belgilaydi.

Intensivlik tilning turli sathlarida namoyon bo'ladi. Fonetik sathda tovushlarning cho'zilishi, undosh tovushlarning ikkilantirish (geminatsiya) orqali ma'no kuchaytiriladi. Masalan: r-r-r-r-ruin (ingliz tilida). Terakning **uchch**ida (o'zbek tilida) yoki **boshsh**ingga ur! kabi.²³

Morfologik sathda esa so'z shakli yoki morfema yordamida ma'no kuchaytiriladi. So'z ma'nolarini kuchaytirishda ingliz tilidagi prefikslar juda faol ishtirok etadi. (super-, hyper-, over-, upper- va boshqalar).

Masalan: **superfood** – a food that is considered to be very good for your health that may even help some medical conditions

Hypermarket – a very large supermarket, usually built outside a town, that sells a wide range of goods.

Leksik sathda intensivlik asosan kuchaytiruvchi ravish, sifat so'z turkumlariga oid so'zlar, kvantor so'zlar, kuchaytiruvchi frazeologik birliklar yordamida ifodalanadi.

Ingliz tilida predmetlarning ko'pligini ifodalovchi kvantor so'zlar qo'llaniladi. Insonlar sonining ko'pligini ifodalashda **hords of** – a large number of people.

Masalan: Hords of tourists arrive in Moscow every day.

Yuqoridagi misolda "**hords of tourists**" iborasini qo'llanishi – "**juda ko'plab sayyohlar**" haqida ma'lumot berganligi bilan xarakterlanadi.

Shunday qilib, intensivlik hodisasi borliqdagi narsa-hodisalarning harakati, holati bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi. Tilshunoslikda esa ushbu kategoriya tilning turli sathlarida ishlatiladi hamda u so'zlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham muhim hisoblanadi. Umuman olganda intensivlik semantik kategoriya bo'lib, umumtil hodisasidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Haydarov, Anvar Askarovich and Navruzova, Nigina Hamidovna (2021) "STYLISTIC FEATURES OF INTONATION," Scientific reports of Bukhara State University: Vol. 5 : Iss. 1 , Article 2.DOI: 10.52297/2181-1466/2021/5/1/2
2. Xojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T: 1985. –B39.
3. Ziyayev.A Ingliz tilida so'z ma'nolarini kuchaytirishning kognitiv talqini Farg'ona. 2011. – B.13-24
4. Арнолд И.В. Стилистика современного английского языка. –М: Просвещение. 1990. – С.209-211
5. Балле Шарл. Французская стилистика. –М: 1961. -211с.
6. Смирницкий А.Н. Лексикология английского языка. – М: 1956. -310с.

²³ Haydarov, Anvar Askarovich and Navruzova, Nigina Hamidovna (2021) "STYLISTIC FEATURES OF INTONATION," Scientific reports of Bukhara State University: Vol. 5 : Iss. 1 , Article 2.DOI: 10.52297/2181-1466/2021/5/1/2 p19



7. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. –М: Наука.1986. –с144.
8. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.:Высшая школа, 1985.-230с.

KINOYANING ESTETIK-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Mavlonova O'g'iloy Hamdamovna

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

dagotys@mail.ru, +998914038305

***Annotatsiya:** Kinoyani o'rganishning dolzarbligi komiksni, ayniqsa, uning qiymati va psixologik jihatlarini rivojlantirish zarurati bilan bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, shubhali istehzo, ya'ni umuman rad etish kinoyasi bu kinoya subyektiga faqat shubhali zavq keltiradigan, foydasiz va ma'nosiz ish ekan. Shu bilan birga, kinoyaning tarixiy, falsafiy va funksional jihatlarini ko'p o'rganilgan bo'lsa-da, kinoyaning mohiyatini tushunish uchun muhim bo'lib tuyulgan uning ifoda xususiyatlari, tajriba qiymati va psixologik jihatlarini etarlicha o'rganilmagan.*

***Kalit so'zlar:** kinoya, romantizm, estetik modifikatsiya, komiks, paralingvistik vositalar, leksik va lingvistik vositalar, stilistik vositalar.*

AESTHETIC AND PHILOSOPHICAL FEATURES OF IRONY

Mavlyanova Ugiloy Khamdamovna

PhD Student of the Bukhara State University

dagotys@mail.ru, +998914038305

***Abstract:** The relevance of the study of irony is related to the need to develop comics, especially its value and psychological aspects. Practice has shown that dubious irony, that is, the irony of total rejection, is a useless and meaningless act that only brings dubious pleasure to the subject of this irony. However, while much of the historical, philosophical, and functional aspects of irony have been studied, its expressive features, experimental value, and psychological aspects, which seem to be important for understanding the essence of irony, have not been sufficiently studied.*

***Key words:** irony, romanticism, aesthetic modification, comics, paralinguistic means, lexical and linguistic means, stylistic means.*

ЭСТЕТИЧЕСКИЕ И ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИРОНИИ

Мавлянова Угиллой Хамдамовна

Докторант Бухарского государственного университета

dagotys@mail.ru, +998914038305

***Аннотация:** Актуальность изучения иронии связана с необходимостью развития комикса, особенно его ценностного и психологического аспектов. Практика показала, что сомнительная ирония, то есть ирония полного отвержения, является бесполезным и бессмысленным поступком, доставляющим только сомнительное удовольствие субъекту этой иронии. Однако, хотя многие исторические, философские и функциональные аспекты иронии были изучены, ее выразительные особенности, экспериментальная ценность и психологические аспекты, которые кажутся важными для понимания сути иронии, изучены недостаточно.*



10.00.00

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

50	Переводы произведения анны зегерсна узбекский язык Якубов С.	254
51	Кичик мактаб ёшидаги ўзбек болалар мулоқот нутқига интернет таъсири Зухро А.А., Абдуллазизова Р.У.	257
52	Ingliz yozuvchisi tomas eliot asarlarida she`riy dramaning o`rni. Ikramova A. A.	263
53	Kosmonimlarning nomlanish qoidalari Ibragimova D.A.	267
54	Hozirgi o`zbek tilining fonologik tizimi Dushayeva G.D.	270
55	V.Shekspirning "Hamlet" fojeasida atoqli otlarni o`zbek va rus tillariga qilingan tarjimalari qiyosiy tahlili Soliyev Y.	274
56	Инглиз ва ўзбек тилларида перифразаларнинг ўрганилиши ва лингвистик асослари Хайдаров А.А., Абдурахмонова С.Б.	280
57	The problems of the medical terminology on english language Shomurotova B.U.	283
58	Инглиз ва ўзбек тилларида сўз бирикмаларининг қиёсий таҳлили Даниева М.Дж.	287
59	Ўзбек ва инглиз тилларида градуонимия таҳлили Неъматова М.Ф.	294
60	Fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi grafik organayzerlar Nabijanov Y.I.	301
61	Ingliz va o`zbek tillarida so`z ma`nolari kuchaytirishning lingvopragmatik talqini Haydarov A.A.,Mustafoyeva N.E.	308
62	Kinoyaning estetik-falsafiy xususiyatlari Mavlonova O`H.	312
63	Evfemizm va frazeologizm dixotomiyasi Rabieva M.G.	316
64	Эссе жанрининг тарихий аспекти Рахимова М. А.	322
65	Uzbek folklore studies and principles of its development Dadaboev O. O.	328
66	Tarixiy tetralogiya: o`zbek va jahon nasri tajribalari Yaxshiyeva Z. R.	336
67	Инглиз ва ўзбек халқ мақолларида циклик ҳамда уникал градуонимия Абдуллаева Н.Э.	341